

**ULUG'BEK HAMDAMNING "NA'MATAK"  
MINI-ROMANINING BADIY TAHLILI**

**Abdullayeva Barchinoy Ahror qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1-bosqich talabasi*

**Sabirova Zebo Zakirovna**

*Ilmiy rahbar.; filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" mini-romanini badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Mini-roman janrining o'zbek adabiyotida yangiligi va bu janrdagi ilk romanda aks etgan badiiy g'oya haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'z:** *mini-roman, badiiylik xususida, badiiy mahoroti, badiylik, na'matak, mehr-oqibat talqini, inson me'zonlari.*

**Annotation:** *This article artistically analyzes the mini-novel "Na'matak" by Ulug'bek Hamdam, who is known and famous for his many works.*

**Keyword:** *mini-novel, in terms of artistry, artistic skill, artistry na'matak, the interpretation of kindness, human criteria.*

**Аннотация:** *В данной статье художественно анализируется мини-роман «Наматак» Улугбека Хамдама, известного и известного своими многочисленными произведениями.*

**Ключевое слова:** *мини-роман, с точки зрения артистизма, художественное мастерство, артистизм, наматак, интерпретация привязанности, человеческие критерии.*

**KIRISH**

O'zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri va o'zining betakror romanlari bilan ajralib turuvchi adib bu Ulug'bek Hamdamdir. Uning bir qator romanlari kitobxonni o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi. Binobarin, "Muvozanat" "Isyon va itoat" yoinki "Na'matak" mini-romani. U bunday asarlari bilan adabiyotimiz xazinasini boyitib kelmoqda. Uning o'zi romanlari haqida shunday deydi: "Har bir yozuvchining o'z uslubi borligini yaxshi bilasiz. Voqeani tasvirlash uchun tanlagan so'zlari ham, ifoda uslubi ham farqli chiqadi. Chunki siz boshqa odam – boshqa olamsiz, men ham boshqa. Bas, shunday ekan, romanlarimning tili bu - mening dunyoko'rish va uni qabul qilish tabiatim bilan bog'liq hodisa. Men o'zim ko'rgan-kechirganlarimni ayni o'sha til bilan ifoda qilmasam, to'lib ketgan ko'nglim bo'shamaydi, men tanlagan so'zlar va men qurgan gap konstruktsiyalarida mening xarakterim mujassam. Binobarin, har bir yozuvchining hikoya qilib berish ohangi, gap qurish uslubi o'ziga xos bo'lsa, deb orzu qilaman. Har tomonlama taroshlangan, jilvirlangan, inkubatoridan chiqqan jo'jalardek bir

xildagi uslublar bilan adabiyotning rang-barangligiga erishib bo'lmaydi. Lekin bu bilan mening asarlarimning tili kamchiliklardan butunlay xoli, demoqchi emasman, aslo. Aytmoqchi bo'lgan narsam shuki, "tanqidchilar" da'vo qilayotgandek ham emas. Mutlaqo! Ularga ikki-uch o'rinlarda haq berganim holda qolgan ayblovlari bilan bahslashish mumkin, demoqchiman. Nafsilamrini so'rasangiz, bunday bachki masalalarda munoqasha qilishga umrimni sarflashdan ko'ra yan a bitta roman yozib, uning titroqlarida to'lg'onish menga yoqimliroq va

Azizroq tuyuladi. (Shuningdek, masala jiddiylashsa, munozaraga aralashishdan bosh tortilmaydi). Chunki hazor shukrki, aytadigan muhimroq gapim bor, yuragim ham yonishdan to'xtagan emas!"(4.)

#### ASOSIY QISM

Asarga donishmandlarning quyidagi so'zlari epigraf qilib olingan:

"Qanday ko'zla boqsa odam olamga,  
Shunda javob aylar olam odamga"

Aynan shu teran so'zlar romanning syujet qismlarini birlashtirib turadi va u haqda Sh. Turdimov: "Xuddi xalq qo'shiqlaridek bir hikmat naqorot bo'lib uch qismni birlashtirib, bog'lab turibdi, yozuvchi hikmatga badiiy maqsadni ochuvchi kalit vazifasini yuklagan. Hikmatlarni ifoda shaklida voqelik tasviri va mazmuniga uyg'un, tadrijiy ko'rinish olganligi bejiz emas"- deydi.(5:414)

Asar ikki qo'shnining o'rtasida bir na'matak o'sib chiqishi bilan boshlanadi. Aynan shu o'simlik sevgi- muhabbat, mehr timsolida ko'rsatiladi. Asarda na'matakning paydo bo'lib qolishi ekspozitsiya o'rnida keladi: " buni hech kim atayin ekan u o'z-o'zidan, yog'e, juda-a bunday desak bo'lmas-ov, xuddi sirli taqdir yanglig' qo'shnilarning umr yo'llarida paydo bo'lgandi". Na'matak orqali bu iki qo'shnining o'rtasida mehr- oqibat juda chiroyli tasvirlangan. Yigit va qizni uchrashtirgan ham aynan u. Uni "sening haqqing" deb bir necha yil terishmasligi, bir-biriga ilinishi, va keyinchalik ularning shu mehr tufayli bir-biriga mehr qo'yib birlashishi bunga misol bo'la oladi.

Ammo keyingi avlod olamga boshqacha nazar bilan qarashdi. Ushbu vakillar o'z manfaatlarini insoniy hislatlardan ustun ko'rishdi. O'rtadagi mehrni na'matak timsolida yo'q qilishdi. Natijada, xuddi shu na'matak bir qo'shnining o'limiga, ikkinchisining esa o'limiga sabab bo'ldi.

Yillar o'tdi, yana o'sha o'simlik ko'karib chiqdi. Yana atrof- muhit uyg'onish faslida. Uchinchi avlod egalari ulg'ayishdi. Ammo ular shu na'matak tufayli bir ajdodlari baxtli bo'lganini, bir avlodi esa baxti qaro bo'lganini bilgan vakillar unga qanaqa munosabatda bo'lishni bilishmasdi, shunchaki, beparvo edilar. Buni quyidagi satrlardan ham bilishimiz mumkin:

-Onangdan butani ismini so'radingmi?

- Yo'q, senchi?

- Esimdan chiqibdi...

Ular bir muddat so'zsiz qotdilar.

Ammo o'ysiz emas...

-Ozi shu muhimmi? – tilga kirdi yigitcha.

- Bilmasam... Muhim, shekilli...-o'ylanib dedi qizcha.

Balki adib bu satlar ila inson hozirgi kundaq shu darajaga yetib keldiki, uning uchun muhim bo'lgan baxtning, taqdir sinovining mohiyatiga yetish tugul unga qiziqmay qo'ydi demoqchidir. Asardan yan shu narsa tushuniladiki, biz olamga qanday boqsak olam ham bizga shunday boqadi. Ya'ni, agar biz olamga ezgulik nazari bilan qarasak, yovuzlik niyyati bilan qarasak yomonlikni, e'tiborsizlik bilan qarasak beparvolikni yo'ldoshi bo'lamiz. Shu o'rinda, Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi ruboiy yozuvchining yuqoridagi asar g'oyasiga juda to'g'ri keladi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'magay yomonliq hargiz,

Har kimki yamon bo'lsa jazo topqusidur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdam ushbu asarida ikki g'oyani ilgari surgan. Ya'ni, kitobxonga insonlarda bora-bora noyoblashib borayotgam mehr-oqibatni asrashni va hayotdan faqat ezgulikni qidirishni yoxud faqat yaxshilik tomon bo'lishlikni uqtiradi hamda asar oxirini noma'lum qilib tugatilishi bilan insonni chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi.

#### REFERENCES:

1. Ulug'bek Hamdam "Na'matak" romanidan
2. Abdullayev Gulomjon "Realizm va Modernizm" maqolasidan
3. <https://hikmatlar.uz>
4. <https://t.me/UlugbekHamdamovijodi>
5. Uligbek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq.-T: Akademnashr,2014.